



Nadira D. ILYASOVA,

Mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston,

E-mail : n68967976@gmail.com, <https://ORCID.org/0009-0002-4210-0133>

O'zDJTU professori, fil.f.d (DSc) M.Umarova taqrizi asosida

THE LITERARY HERITAGE OF ABDURAUUF FITRAT AND THE REFORM OF THE INDIVIDUAL AND SOCIETY IN THE LITERATURE OF THE NATIONAL AWAKENING PERIOD

Annotation

This scientific article provides a comprehensive analysis the role of Abdurauf Fitrat literary heritage in the development of the literature of the National Awakening period and analyzes the artistic interpretation of the issues of individual and social reform in his works. The study explores the spiritual and educational foundations of the Ja did movement, as well as the reflection of national consciousness, free thought, enlightenment, and progress in Fitrat's creative works. Through the analysis of the writer's dramatic, journalistic, and prose works, the article reveals the concept of reforming society through overcoming ignorance and backwardness, promoting modern science and education. The article theoretically analyzes Fitrat's artistic-aesthetic views and reformist thinking within the literature of the National Awakening period based on comparative and analytical methods.

Key words: National Awakening period, Jadid movement, personal development, enlightenment thought, social reform, national consciousness.

ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ АБДУРАУФА ФИТРАТ И ПРОБЛЕМЫ РЕФОРМЫ ЛИЧНОСТИ И ОБЩЕСТВА В ЛИТЕРАТУРЕ ПЕРИОДА НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация

В данной научной статье исследуется роль литературного наследия Абдурауфа Фитрата в развитии литературы периода национального возрождения, а также художественная интерпретация проблем личности и общественных реформ в его произведениях. В исследовании анализируются духовно-просветительские основы джадидского движения, отражение идей национального самосознания, свободомыслия, просвещения и прогресса в творчестве Фитрата. На основе анализа драматических, публицистических и прозаических произведений автора раскрывается концепция реформирования общества посредством преодоления невежества и отсталости, развития современной науки и образования, а также совершенствования личности.

В статье художественно-эстетические в зглядь Фитрата и его реформаторское мышление в литературе периода национального возрождения рассматриваются с применением сравнительного и аналитического методов.

Ключевые слова: Период национального возрождения, джадидское движение, развитие личности, просветительская мысль, общественная реформа, национальное самосознание.

ABDURAUUF FITRAT ADABIY MEROSI VA MILLIY UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTIDA SHAXS VA JAMIYAT ISLOXATI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Abdurauf Fitrat adabiy merosining milliy uyg'onish davri adabiyoti taraqqiyotidagi o'rmi hamda uning asarlarida shaxs va jamiyat islohoti masalalarining badiiy talqini yoritilgan. Tadqiqotda jadidchilik harakatining ma'naviy-ma'rifiy asoslari, Fitrat ijodida milliy ong, erkin fikr, ma'rifat va taraqqiyot g'oyalarining aks etishi tahlil qilinadi. Adibning dramatik, publitsistik va nasriy asarlari orqali xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, shaxs kamoloti orqali jamiyatni isloh qilish konsepsiyasi yoritib berilgan.

Maqolada Fitratning badiiy-estetik qarashlari hamda milliy uyg'onish davri adabiyotidagi islohotchi tafakkuri qiyosiy va tahliliy metodlar asosida nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: Milliy uyg'onish davri, jadidchilik harakati, shaxs kamolati, ma'rifatparvarlik tafakkuri.

Kirish. Abdurauf Fitrat (1886–1938) o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyandasi, jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri sifatida xalq ma'naviy tafakkuri va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi. U nafaqat iste'dodli adib va dramaturg, balki tilshunos, publitsist, tarixchi hamda milliy istiqloq g'oyalarini targ'ib qilgan ma'rifatparvar ziyoli sifatida ham tanilgan. Fitrat Buxoroda tavallud topib, dastlab an'anaviy madrasa ta'limini olgan, keyinchalik Istanbulda tahsil olib, Sharq va G'arb madaniyati, falsafasi hamda zamonaviy islohotchilik qarashlari bilan yaqindan tanishgan. Aynan shu omillar uning dunyoqarashi va ijodiy tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg'onish, ma'rifat va jamiyatni

isloh qilish g'oyalarini ilgari surdi. Mazkur harakat vakillari xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarishning asosiy yo'li sifatida ilm-fan, zamonaviy ta'lim va milliy o'zlikni anglash masalalariga alohida e'tibor qaratdilar. Fitrat ijodi aynan shu tarixiy jarayon bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning asarlarida shaxs kamoloti, milliy tafakkur, erkin fikr va jamiyat taraqqiyoti masalalari yetakchi mavzu sifatida namoyon bo'ladi. Adib "ma'rifat" tushunchasini faqatgina bilim olish vositasi sifatida emas, balki milliy ozodlik, ijtimoiy uyg'onish va inson qadr-qimmatini tiklashning muhim omili sifatida talqin qiladi.

Fitrat ijodining yana bir muhim jihati shundaki, u Sharq mumtoz an'analari hamda Yevropa ma'rifatchilik g'oyalarini uyg'unlashtira oldi. Uning "Hindistondagi bir farangi bilan

Buxoroli bir mudarrisning munozarasi”, “Rahbari najot”, “Sayha”, “Abulfayzxon” kabi asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, mutaassiblik, siyosiy tanazzul va ma’naviy inqiroz masalalari badiiy-estetik vositalar orqali ochib beriladi. Ayniqsa, adib asarlarida ma’rifatli inson obrazi jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi sifatida tasvirlanadi.

Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat adabiy merosining milliy uygʻonish davri adabiyotidagi oʻrni hamda uning asarlarida shaxs va jamiyat islohoti masalalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, Fitratning ma’rifatparvarlik qarashlari, milliy uygʻonish gʻoyalari va islohotchi tafakkurining oʻzbek adabiyoti taraqqiyotiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fitrat merosini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy ishlar XX asr oʻrtasidan boshlab keng rivojlana boshladi. Oʻzbek adabiyotshunosligining yirik vakili Hamidulla Boltaboyev [1] oʻz tadqiqotlarida Fitrat dramaturgiyasining poetik qatlamlarini va uning mumtoz adabiyotdan modernizmga oʻtish pallasidagi metodologik burilishlarini batafsil ochib berdi. Olim jadid dramaturgiyasidagi syujet, obraz va til vositalarining yangilanishini Yevropa realistik dramaturgiyasi bilan qiyoslab tahlil qilgan.

Oʻzbek jadidshunosligining yirik vakillari Begali Qosimov[2] va Naim Karimovlarning[3] ilmiy ishlarida jadid adabiyoti shunchaki badiiy hodisa emas, balki ijtimoiy islohot quroli sifatida talqin etiladi.

Olimlar Behbudiy, Fitrat va Choʻlpon asarlaridagi ma’rifatparvarlik tendensiyalarini Yevropa ma’rifatparvarlarining "jamiyatni ta’lim orqali oʻzgartirish" kontsepsiyasi bilan qiyoslaydilar. Ayniqsa, B. Qosimov jadidlar ijodidagi "millatni uygʻotish" gʻoyasini Gʻarb ma’rifatchiligining Sharqona modernizatsiyalashgan shakli sifatida baholagan.

Shu bilan birga, Fitratning gʻoyaviy evolyutsiyasi – xususan, diniy-islomiy reformizmdan dunyoviy milliyatchilikka oʻtish jarayoni – hali yaxlit tadqiq etilmagan. Naim Karimov [4] va boshqa olimlarning ishlari bu masalaga muayyan yorugʻlik tashlaganligi bilan birga, metodologik jihatdan yanada kengroq tahlilga ehtiyoj qolganini koʻrsatadi. Xorijlik tadqiqotchi Edvard Ollvort [5] Fitrat ijodini “Markaziy Osiyoning madaniy renessansi” doirasida koʻrib, uning oʻzbek milliy oʻzligining shakllanishidagi rolini alohida ta’kidlagan. Oʻzbek jadidshunosligining koʻzga koʻringan vakili Begali Qosimov [6] esa Fitratning publitsistik va dramatik asarlarini ijtimoiy islohot vositasi sifatida oʻrganib, ularning Yevropa ma’rifatparvarlari gʻoyalari bilan tipologik uygʻunligini koʻrsatib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot zamonaviy adabiyotshunoslik hamda jadidshunoslikda qoʻllaniladigan ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda amalga oshirildi. Abdurauf Fitrat ijodida milliy uygʻonish, ma’rifatparvarlik hamda shaxs va jamiyat islohoti masalalari murakkab ijtimoiy-estetik hodisa sifatida namoyon boʻlgani sababli tadqiqotda tizimli va integrativ metodologik yondashuv tanlandi.

Tadqiqotda avvalo konseptual tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali “ma’rifat”, “milliy uygʻonish”, “shaxs erkinligi”, “ijtimoiy taraqqiyot” va “jamiyat islohoti” kabi tushunchalarning falsafiy hamda badiiy mazmuni tahlil qilindi. Konseptual yondashuv Fitrat asarlarida ushbu gʻoyalarning qanday estetik shakllarda ifodalanganini ochib berishga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida qiyosiy-tarixiy tahlil usuli qoʻllanildi. Mazkur metod yordamida XX asr boshidagi Turkiston jadid adabiyoti va milliy uygʻonish jarayonining tarixiy-adabiy xususiyatlari

oʻrganildi. Fitrat ijodining shakllanishiga ta’sir koʻrsatgan ijtimoiy-siyosiy omillar, jadidchilik harakatining ma’naviy asoslari hamda adibning islohotchi qarashlari tarixiy jarayonlar bilan uzviy bogʻliqlikda tahlil qilindi. Tadqiqotda tarkibiy-semantik tahlil usulidan ham foydalanildi. Bu metod orqali Fitratning dramatik va publitsistik asarlarida qoʻllangan obrazlar tizimi, badiiy konflikt, ramziy ifodalar hamda didaktik unsurlarning funksional vazifasi oʻrganildi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari Abdurauf Fitrat ijodida shaxs va jamiyat islohoti masalasi milliy uygʻonish davri adabiyotining markaziy gʻoyaviy-estetik konsepsiyalaridan biri ekanligini koʻrsatdi. Tadqiqot davomida Fitrat asarlarida ma’rifat, milliy ong, erkin fikr va taraqqiyot tushunchalari jamiyatni yangilashning asosiy omili sifatida talqin qilinishi aniqlandi. Shu bilan birga, jaholat, mutaassiblik, ijtimoiy qoloqlik va siyosiy tanazzul adib tomonidan millat taraqqiyotiga toʻsqinlik qiluvchi asosiy muammolar sifatida tasvirlanganligi kuzatildi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, Fitrat ijodida shaxs va jamiyat islohoti avvalo obrazlar tizimi orqali yoritiladi. Adibning dramatik va publitsistik asarlarida ma’rifatparvar ziyoli, yangicha fikrlovchi yoshlar hamda eski aqidalar ta’sirida qolgan mutaassib qatlam vakillari oʻrtasidagi qarama-qarshilik badiiy konfliktning asosini tashkil etadi. Ayniqsa, “Hindistondagi bir farangi bilan Buxoroli bir mudarrisning munozarasi” hamda “Abulfayzxon” asarlarida yangilik va eskilik, taraqqiyot va qoloqlik oʻrtasidagi ziddiyatlar chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. Natijada Fitrat jamiyat taraqqiyoti avvalo inson tafakkurini oʻzgartirish va ma’rifatli shaxsni shakllantirish bilan bogʻliq ekanligini badiiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Fitratning badiiy-estetik qarashlarida ramziy obrazlar, publitsistik ruh va didaktik unsurlar muhim oʻrin tutishini tasdiqladi. Adib ma’rifat va uygʻonish gʻoyalari ifodalashda ramz, murojaat, dialog va dramatik qarama-qarshiliklardan samarali foydalangan. Ayniqsa, ilm-ma’rifat taraqqiyot timsoli sifatida, jaholat va mutaassiblik esa millat tanazzulining asosiy sababi sifatida badiiy talqin etiladi.

Munozara. Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyoslanganda, Abdurauf Fitrat ijodida shaxs va jamiyat islohoti masalasi milliy uygʻonish davri adabiyotining eng muhim gʻoyaviy-estetik tamoyillaridan biri sifatida shakllangani aniqlandi. Klassik Sharq adabiyotida inson kamoloti asosan axloqiy yetuklik, diniy-ma’naviy poklanish va individual komillik bilan bogʻliq holda talqin qilingan boʻlsa, jadid adabiyotida ushbu tushuncha ijtimoiy taraqqiyot, milliy uygʻonish va siyosiy erkinlik masalalari bilan uzviy bogʻliq tarzda namoyon boʻladi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, Fitrat asarlarida ma’rifat tushunchasi faqat ilm olish vositasi sifatida emas, balki millatni uygʻotish, jamiyatni yangilash va inson tafakkurini erkinlashtirish omili sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, jadid adabiyotida ma’rifat va jaholat oʻrtasidagi ziddiyat individual emas, balki ijtimoiy va milliy muammo sifatida ifodalanadi. Shu sababli adib asarlaridagi qahramonlar koʻpincha eski dunyoqarash va yangi taraqqiyot gʻoyalari oʻrtasida ichki ruhiy ziddiyatni boshdan kechiradi. Bu holat Fitratning “Hindistondagi bir farangi bilan Buxoroli bir mudarrisning munozarasi” hamda “Abulfayzxon” kabi asarlarida yaqqol kuzatiladi. Munozara natijalari Fitrat ijodida jaholat tushunchasi ham an’anaviy talqindan farqli ravishda kengroq ijtimoiy-estetik mazmun kasb etishini koʻrsatdi. Jaholat faqat savodsizlik emas, balki mutaassiblik, ijtimoiy turgʻunlik, milliy befarqlik va yangilikni inkor etish bilan bogʻliq holda tasvirlanadi. Shu bilan birga, ayrim obrazlarda eski qarashlar va zamonaviy tafakkur elementlarining birgalikda mavjudligi inson ruhiyati va jamiyatdagi oʻtish davri

murakkabligini aks ettiradi. Natijada Fitrat qahramonlari orqali milliy uyg'onish jarayonidagi ichki kurashlar va ma'naviy izlanishlar chuqur badiiy talqin etiladi.

Adib ma'rifat va taraqqiyot g'oyalari ifodalashda nur va zulmat, uyg'onish va turg'unlik, erkinlik va qaramlik kabi ramziy qarama-qarshiliklardan samarali foydalangan. Shuningdek, tor muhit va keng dunyo obrazlari orqali jamiyatning ma'naviy holati hamda inson tafakkurining yangilanish jarayoni badiiy jihatdan chuqurlashtirilgan.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari Abdurauf Fitrat adabiy merosida shaxs va jamiyat islohoti masalasi milliy uyg'onish davri adabiyotining markaziy g'oyaviy-estetik tamoyillaridan biri sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Fitrat asarlarida ma'rifat, milliy ong, erkin fikr va taraqqiyot tushunchalari jamiyatni yangilashning asosiy omili sifatida talqin qilinib, jaholat, mutaassiblik va ijtimoiy turg'unlik millat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omillar

sifatida badiiy ifodalanganligi aniqlandi. Tadqiqot davomida adibning dramatik va publitsistik asarlarida shaxsning ma'naviy kamoloti hamda jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik chuqur yoritilgani kuzatildi.

Tadqiqot natijalari jadid adabiyotini konseptual va qiyosiy-tahliliy metodlar asosida o'rganish samarali ilmiy yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Mazkur metodologik yondashuv kelgusida milliy uyg'onish davri adabiyoti, jadid dramaturgiyasi va ma'rifatparvarlik tafakkurini chuqurroq tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, Fitratning adabiy va publitsistik merosini zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yanada kengroq o'rganish, uning asarlaridagi milliy o'zlik, erkinlik va islohot g'oyalari bugungi ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Adabiyot entsiklopediyasi. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2015. – 664 b.
2. Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004
3. Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2019. – 423 б
4. Umarova M. Yevropa ma'rifatchiligi va jadid adabiyotining rivojlanish tendentsiyalari // Filologiya fanlari. – 2025. – №2.
5. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 410 p.
6. <https://fitrat.uz> [Murojaat sanasi: 15.20.2026].